



FARG'ONA VILOYATI
STATISTIKA BOSHQARMASI

FARG'ONA
VILOYATINING
DEMOGRAFIK HOLATI

2023- *yil*
yanvar-mart



FARG'ONA VILOYATINING DOIMIY AHOLISI

2023- yil 1- aprel holatiga, dastlabki ma'lumotlar

Farg'ona viloyatida 2023- yil 1- aprel holatiga doimiy aholi soni 3 994,8 ming kishini tashkil etib, yil boshiga nisbatan 81,4 ming kishiga yoki 2,1 % ga ko'paydi. Jumladan, shahar aholisi soni 2 274,3 ming kishini (jami aholi sonidagi ulushi 56,9 %), qishloq aholisi soni 1 720,5 ming kishi (43,1 %) ni tashkil etdi.

Doimiy aholi soni

3 994,8 ming
kishi

Tabiiy o'sish

(+) 81,4 ming
kishi

Doimiy aholining yashash joyi bo'yicha taqsimlanishi

Shahar



56,9%

Qishloq



43,1%

Aholining tabiiy harakati, ming kishi



2022

2023

Tug'ilganlar soni

Vafot etganlar soni

Aholining tabiiy o'sishi


Farg'ona viloyati bo'yicha asosiy demografik ko'rsatkichlar

2023- yil yanvar-mart



Yosh guruhlari bo'yicha aholi soni


2023- yil 1- aprel holatiga



2023- yil 1- aprel holatiga ko'ra, viloyat doimiy aholisi sonining 30,0 %i mehnatga layoqatli yoshdan kichiklar, 57,0 %i mehnatga layoqatli yoshdagilar va 13,0 %i mehnatga layoqatli yoshdan kattalar hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Yosh guruhlari va jinsi bo'yicha aholi tarkibi


2022- yil 1- yanvar holatiga



2022- yil 1- yanvar holatiga Farg'ona viloyatining doimiy aholisi tarkibini jinsi va yosh guruhlari bo'yicha (65 yoshgacha bo'lganlar 5 yillik yosh intervalida, 65 va undan yuqori yoshdagilar esa jamlangan holda) tahlil qilinganda, erkaklar tarkibida 4 yoshgacha bo'lgan bolalar eng yuqori ko'rsatkichni, ya'ni 223,2 ming kishini tashkil etgan. Erkaklar tarkibida eng kam aholi soni 60-64 yoshlilar hissasiga to'g'ri kelib, 72,7 ming kishini tashkil etdi. Shuningdek, ayollar tarkibida ham 4 yoshgacha bo'lgan qizlar eng yuqori ko'rsatkichni, ya'ni 207,0 ming kishini tashkil etgan bo'lsa, eng kam ayollar soni 60-64 yoshlilar hissasiga to'g'ri kelgan, ya'ni 79,1 ming kishini tashkil etgan.


Tug'ilishda kutilayotgan umr davomiyligi

2022- yil 1- yanvar holatiga



2022- yilning 1- yanvar holatiga Farg'ona viloyati aholisining kutilayotgan o'rtacha umr ko'rish davomiyligi 74,8 yoshni tashkil etgan. Erkaklar uchun 72,5 yoshga, ayollar uchun esa 76,5 yoshga teng. Shahar joylar 74,7 yosh qishloq joylar uchun kutilayotgan o'rtacha umr ko'rish davomiyligi 74,1 yoshni tashkil etgan.

Doimiy aholi sonining taqsimlanishi
2023- yil 1- aprel holatiga




Doimiy aholi sonining hududlar bo'yicha taqsimlanishi

2023- yil 1- aprel holatiga, ming kishi

	2022- yil	2023- yil	O'sish sur'ati, % da
Farg'ona viloyati	3 913,4	3 994,8	102,1
<i>shaharlar:</i>			
Farg'ona	300,7	316,4	105,2
Qo'qon	260,9	305,0	116,9
Quvasoy	97,3	99,4	102,2
Marg'ilon	243,4	247,7	101,8
<i>tumanlar:</i>			
Oltiariq	220,1	224,8	102,1
Qo'shtepa	199,5	204,7	102,6
Bag'dod	224,3	229,0	102,1
Buvayda	237,2	242,7	102,3
Beshariq	235,3	239,2	101,7
Quva	267,0	271,7	101,8
Uchko'prik	238,5	237,4	99,5
Rishton	209,2	213,2	101,9
So'x	80,8	82,3	101,9
Toshloq	210,8	215,4	102,2
O'zbekiston	247,3	231,6	93,7
Farg'ona	222,0	217,8	98,1
Dang'ara	181,6	173,7	95,6
Furqat	122,3	125,0	102,2
Yozyovon	115,2	117,8	102,3

Farg'ona viloyati bo'yicha aholi zichligi

2023- yil 1- aprel holatiga, 1 kv.km.ga to'g'ri keladigan aholi soni, kishi





Farg'ona viloyatida 2023- yil 1- aprel holatiga 1 kvadrat kilometrga o'rtacha 591,0 kishi to'g'ri kelgan. Bu esa o'tgan yilning mos davriga nisbatan solishtirilganda 12,0 kishiga ortgan (2022- yilda 1 kv.km.ga 579,0 kishi).

Hududlar bo'yicha qaraydigan bo'lsak, aholi zichliginig eng yuqori ko'rsatkichi Qo'qon shahrida 996,7kishi, Marg'ilon shahrida 6041,5 kishi, Farg'ona shahrida 2126,3 kishi, Uchko'prik tumanida 1018,9 kishi, Toshloq tumanida 886,4 kishini tashkil etgan bo'lsa, eng past ko'rsatkichilar Yozyovon tumani 289,4 kishi, Beshariq tumanida 309,0 kishi, Oltiariq tumanida 356,3 kishi, O'zbekiston tumanida 426,5 kishi, So'x tumanida 372,4 kishini tashkil etgan.

Farg'ona viloyati bo'yicha aholi zichligi dinamikasi

2023- yil 1- yanvar holatiga, 1 kv.km.ga to'g'ri keladigan aholi soni, kishi





Hududlar kesimida tug'ilganlar soni va koeffitsiyenti

2023- yil yanvar-mart, kishi

Qo‘qon sh.	1 933	21,5%
Farg‘ona sh.	1 860	21,8 %
Uchko‘prik	1 589	28,6 %
Marg‘ilon sh.	1 574	26,2 %
Oltiariq	1 434	26,2%
Quva	1 416	23,2 %
Qo‘shtepa	1 396	28,1 %
Buvayda	1 363	26,7%
Bag‘dod	1 352	26,3 %
Toshloq	1 276	23,6 %
Farg‘ona	1 276	27,8 %
O‘zbekiston	1 208	26,2 %
Rishton	1 185	23,8 %
Dang‘ara	1 146	30,4 %
Beshariq	1 067	23,3 %
Furqat	712	25,6 %
Yozyovon	676	25,7 %
Quvasoy sh.	625	23,4 %
So‘x	321	22,8 %

2023- yil yanvar-mart oylarida 23 409 ta bola tug‘ilganligi qayd etilgan bo‘lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan tug‘ilish koeffitsiyenti 25,4 promilleni tashkil etdi hamda bu ko‘rsatkich 2022- yilga nisbatan 2,6 promillega oshganligi kuzatildi (2022- yilda 22,8 promilleni tashkil etgan).

VAFOT ETGANLAR



Hududlar kesimida vafot etganlar soni va koeffitsiyenti


2023- yil yanvar-mart, kishi

Farg'ona sh.	409	6,1 %
Qo'qon sh.	335	4,1 %
O'zbekiston t.	312	5,4 %
Quva t.	287	4,1 %
Marg'ilon sh.	275	4,9 %
Bag'dod t.	249	4,2 %
Oltiariq t.	242	4,2 %
Farg'ona t.	241	4,9 %
Beshariq t.	238	5,0 %
Uchko'prik t.	234	4,4 %
Qo'shtepa t.	228	4,5 %
Rishton t.	210	4,3 %
Toshloq t.	202	4,8 %
Dang'ara t.	196	5,5 %
Buvayda t.	194	3,7 %
Furqat t.	123	4,8 %
Yozyovon t.	108	3,9 %
So'x t.	95	5,8 %
Quvasoy sh.	86	4,9 %

2023- yilning yanvar-mart oylarida 4 264 ta o'lim qayd etilgan bo'lib, har 1000 aholiga o'lim koeffitsiyenti 4,7 promilleni tashkil etgan hamda 2022- yil yanvar-mart oylariga nisbatan 0,2 promillega ko'payganligi kuzatildi (2022- yilda 4,5 promilleni tashkil etgan).


O'limning asosiy sabablar bo'yicha taqsimlanishi

2023- yil yanvar-mart, kishi




2023- yilning yanvar-mart oylarida qayd etilgan o'lim holatining 53,6 %i – qon aylanish tizimi kasalliklaridan, 9,0 %i – o'simtalardan, 11,7 %i – nafas olish a'zolari kasalliklaridan, 3,9 %i – baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, 3,6 %i – ovqat hazm qilish a'zolari kasalliklaridan, 1,4 %i – yuqumli va parazitar kasalliklardan, 16,7 %i boshqa kasalliklardan vafot etganlar.

QAYD ETILGAN NIKOHLAR




Hududlar kesimida nikohlar soni va koeffitsiyenti 2023- yil yanvar-mart, birlik



2023- yilning yanvar-mart oylarida 4 486 ta nikoh qayd etilgan bo'lib, har 1000 aholiga nikoh koeffitsiyenti 8,1 promilleni tashkil etgan hamda 2022- yilga nisbatan 2,6 promillega ko'payganligi kuzatildi (2022- yilning yanvar-mart oylarida 5,5 promille bo'lgan).

NIKOHDAN AJRALISHLAR

Nikohdan ajralishlar soni va koeffitsiyenti
2023- yil yanvar-mart, birlik


2023- yil yanvar-mart oylarida 1 662 ta nikohdan ajralishlar qayd etilgan bo'lib, har 1000 aholiga nikohdan ajralishlar koeffitsiyenti 1,4 promilleni tashkil etgan hamda 2022- yilga nisbatan 0,2 promillega oshganligi kuzatildi (2022- yil yanvar-mart oylarida 1,2 promille bo'lgan).

AHOLI MIGRATSIVASI

(Doimiy yashash maqsadida ko'chib kelganlar va ko'chib ketganlar)

2023- yil yanvar-mart oylarida viloyat bo'yicha doimiy yashash maqsadida ko'chib kelganlar jami soni 2 101 kishini tashkil etdi. Doimiy yashash maqsadida ko'chib ketganlar soni jami 2 745 kishini tashkil etib, migratsiya saldosи minus 644 kishini tashkil etdi.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha ko'chib kelganlar va ko'chib ketganlar soni


2023- yil yanvar-mart, kishi

	Ko'chib kelganlar Jami	Ko'chib ketganlar Jami
Farg'ona viloyati	2 101	2 745
<i>shaharlar:</i>		
Farg'ona sh.	951	402
Qo'qon sh.	15	281
Quvasoy sh.	93	82
Marg'ilon sh.	8	233
<i>tumanlar:</i>		
Oltiariq t.	38	93
Qo'shtepa t.	124	98
Bag'dod t.	5	63
Buvayda t.	43	80
Beshariq t.	77	166
Quva t.	62	178
Uchko'prik t.	39	112
Rishton t.	54	129
So'x t.	30	7
Toshloq t.	77	102
O'zbekiston t.	94	135
Farg'ona t.	133	397
Dang'ara t.	118	52
Furqat t.	98	80
Yozyovon t.	42	55

JAMI KO'CHIB KELGANLAR




Ko'chib kelganlar soni va koeffitsiyenti

2023-yil yanvar-mart, kishi


2023-yilning yanvar-mart oylarida 2 101 ta ko'chib kelganlar qayd etilgan bo'lib, har 1000 aholiga ko'chib kelish koeffitsiyenti 2,2 promilleni tashkil etgan hamda 2022-yilga nisbatan 0,3 promillega kamayganligi kuzatildi (2022-yilning yanvar-mart oylarida 2,5 promille bo'lgan).

JAMI KO'CHIB KETGANLAR

Ko'chib ketganlar soni va koeffitsiyenti
2023- yil yanvar-mart, kishi


2023- yilning yanvar-mart oylarida 2 745 ta ko'chib ketganlar qayd etilgan bo'lib, har 1 000 aholiga ko'chib ketish koeffitsiyenti 2,9 promilleni tashkil etgan hamda 2022- yilga nisbatan 0,2 promillega kamayganligi kuzatildi (2022- yilning yanvar-mart oylarida 3,1 promille bo'lgan).

Demografik ko'rsatkichlarga izohlar

Doimiy aholi – ro'yxatdan o'tkazilayotgan vaqtida muayyan aholi punkti yoki hududda doimiy istiqomat qilayotgan aholidan iborat bo'lib, bunga ushbu hududda doimiy ro'yxatda turib, lekin vaqtincha yashamaydigan aholi ham kiritiladi.

Shahar aholisi – shahar hududlarida, ya'ni me'yoriy hujjatlar bilan shaharlar, shaharchalar sifatida belgilangan aholi punktlarida istiqomat qiluvchi aholi.

Qishloq aholisi – shaharlar va shaharchalar toifasiga kiritilmagan hududlarda – qishloq joylarda (ovullar, qishloqlar va boshqalar) istiqomat qiluvchi aholi.

Doimiy aholi sonini baholash – oxirgi aholini ro'yxatga olish ma'lumotlari asosida hisoblanib, unga har yili tug'ilganlar va muayan hududga ko'chib kelganlar soni qo'shilib, o'lganlar va muayan hududdan ko'chib ketganlar soni ayrıldi.

Tug'ilish – tug'ilish jarayonlarining sodir bo'lishi va boshqa xususiyatlarini tavsiflovchi ko'rsatkich.

1000 aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsiyenti – hisobot yilida jami tug'ilganlar (tirik) sonini hisobot davridagi doimiy aholining o'rtacha soniga bo'lib, 1000ga ko'paytirish orqali hisoblanadi.

1000 aholiga nisbatan o'lim koeffitsiyenti – hisobot yilida jami o'lganlar sonini hisobot yilidagi doimiy aholining o'rtacha soniga bo'lib, 1000 ga ko'paytirish orqali hisoblanadi.

O'lim sabablari – o'limga yoki uning sodir bo'lishiga ta'sir etgan kasalikklar, patologik holatlar va jarohatlar, shuningdek, o'lim bilan yakun topgan jarohatga sabab bo'lgan baxtsiz hodisa va zo'ravonlik holatlari.

Nikoh – erkak va ayol o'rtasidagi, ularning bir-birlariga va farzandlariga nisbatan huquq va majburiyatlarini belgilab beradigan o'zaro munosabatlari shakli. Er va xotin o'rtasidagi yuridik munosabatlar fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish (FHDYO) organlarida nikohlarini ro'yxatdan o'tkazish natijasida o'rnatiladi.

1000 aholiga nisbatan nikohlar koeffitsiyenti – hisobot yilida tuzilgan nikohlar sonini doimiy aholining o'rtacha soniga bo'lib, 1000 ga ko'paytirish orqali hisoblanadi.

Nikohdan ajralish (nikohni bekor qilish) – er-xotinlarning hayoti davomida, tomonlar uchun qayta nikoh huquqini beruvchi, nikohlarning to'liq yuridik to'xtatilishi, nikoh FHDYO yoki sud organlarida ajralishni ro'yxatdan o'tkazilganidan so'ng bekor qilingan hisoblanadi.

1000 aholiga nisbatan nikohdan ajralish koeffitsiyenti – hisobot yilida nikohdan ajralishlar sonini doimiy aholining o'rtacha soniga bo'lib, 1000ga ko'paytirish orqali hisoblanadi.

Ko'chib kelganlar soni – ko'chib kelganlarning absolyut miqdori, ya'ni muayyan hududga uning tashqarisidan ko'chib kelganlardan iborat. Ichki ishlar organlari tomonidan aholini yashash joyi bo'yicha ro'yxatga olishda tuziladigan statistik hisobga olish so'rovnomalarini qayta ishlash natijasida ko'chib kelish.



Ko'chib ketganlar soni – ko'chib ketganlarning absolyut miqdori, ya'ni muayyan hududga uning tashqarisidan ko'chib ketganlardan iborat. Ichki ishlar organlari tomonidan aholini yashash joyi bo'yicha ro'yxatga olishda tuziladigan statistik hisobga olish so'rovnomalarini qayta ishslash natijasida ko'chib ketish.

Aholining migratsion o'sishi (farqi) – hisobot davrida ko'chib kelganlar va ko'chib ketganlar soni o'rtasidagi farqning absolyut miqdori.

Demografiya va mehnat statistikasi bo'limi

Tel: 73 241-97-74